


2020-yil yanvar-avgust oylarida xizmatlar sohasining rivojlanishi

Hozirgi vaqtida xizmatlar sohasi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida hal qiluvchi rol o'ynaydi. O'zbekistonda uchlamchi sektor, ba'zan xizmatlar sohasi shunday ataladi, mamlakat iqtisodiyotining jadal rivojlanayotgan tarmoqlaridan biri hisoblanadi.

2020-yil 1-sentabr holatiga ko'ra 27 873 ta faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlardan, xizmatlar sohasida 16 893 ta korxona va tashkilotlar faoliyat ko'rsatmoqda.


**2020-yil 1-sentabr holatiga korxona va tashkilotlarning umumiyligi
xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi,
% da**

(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Xizmat ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlar umumiy sonining 12 171 ta korxona va tashkilotlar kichik biznes subyektlarini tashkil etadi. 2020-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, ularning ulushi 72,0 % ni tashkil etdi.

**2020-yil 1-sentabr holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan,
kichik tadbirkorlik subyektlarning ulushi, % da
(fermer va dehqon xujaliklardan tashqari)**



2020-yil 1-sentabr holatiga ko'ra, xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlar tarkibida savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi korxona va tashkilotlar ulushi 42,3 % ni tashkil etdi.


Yaqin va uzoq xorij mamlakatlari bilan, shuningdek turizm sohasida o'zaro hamkorlikni rivojlantirish, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarini ko'rsatuvchi korxonalar va tashkilotlar sonining o'sishiga ta'sir ko'rsatdi. Ularning ulushi 7,4 % ni tashkil etdi.

Tashish va saqlash faoliyati bilan shug'ullanuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning xizmat ko'rsatish sohasidagi korxona va tashkilotlar umumiy sonidagi ulushi 5,4 % ni tashkil etdi. Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar

sohasida xizmat ko'rsatuvchi faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning ulushi 3,9 % ni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari sohasida xizmatlar ko'rsatuvchi korxona va tashkilotlarning ulushi 1,9 % ni tashkil etdi.


2020-yil 1-sentabr holatiga xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxona va tashkilotlarning iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha tarkibi, % da
(fermer va dehqon xo'jaliklaridan tashqari)



Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yil yanvar-avgust oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi 6 192,0 mlrd. so'mga teng bo'lib, bu o'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 99,8 % ni tashkil etdi.


Ko'rsatilgan bozor xizmatlarning tarkibida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanganda savdo xizmatlariga 32,4 %, transport xizmatlariga 21,5 %, moliyaviy xizmatlarga 16,5 %, aloqa va axborotlashtirish xizmatlariga 5,1 % da yuqori ulushlar ketma-ketligi kuzatildi.

2020-yil yanvar - avgust oylarida ko'rsatilgan
bozor xizmatlari tarkibi, % da



2020-yil yanvar-avgust oylarida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi o'tgan yilga nisbatan 559,1 mlrd. so'mga oshdi. Joriy yilning oldingi (yanvar-iyul oylari) davriga nisbatan xizmatlar hajmi 859,8 mlrd. so'mga ko'paydi.

**2020-yil yanvar-avgust oylarida ayrim xizmat turlari
hajmining taqqoslanishi, mlrd. so'm**



Joriy yilning oldingi (yanvar- iyul oylari) davriga nisbatan ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmining o'sishiga savdo xizmatlari 419,3 mlrd. so'mga, transport xizmatlari 253,4 mlrd. so'mga, moliyaviy xizmatlar 352,0 mlrd. so'mga hamda ta'lim sohasidagi xizmatlar 57,6 mlrd. so'mga oshishi asosiy omillardan biri hisoblanadi.


Ma'lumot uchun: 2019-yilning mos davriga nisbatan moliyaviy xizmatlar – 246,7 mlrd. so'm, savdo xizmatlari – 149,1 mlrd. so'm, transport xizmatlari 73,6 mlrd. so'm va ta'lim sohasidagi xizmatlar – 45,3 mlrd. so'mga oshgan.

**2020-yil yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha ishlab chiqarilgan xizmatlarning asosiy ko'rsatkichlari**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, %
Xizmatlar – jami	6 192,0	99,8
shu jumladan:		
aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	318,3	110,6
moliyaviy xizmatlar	1 020,5	130,5
transport xizmatlari	1 329,7	96,4
shu jumladan: avtovoz xizmatlari	1 289,5	99,0
yashash va ovqatlanish xizmatlari	163,8	86,2
savdo xizmatlari	2 004,7	94,2
ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	167,0	87,7
ta'lim sohasidagi xizmatlar	185,2	112,7
sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	77,9	92,0
ijara xizmatlari	162,1	92,2
kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	208,0	91,2
shaxsiy xizmatlar	206,2	90,9
me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	84,4	67,9
boshqa xizmatlar	264,2	95,5

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar 130,5 % da, ta'lim sohasidagi xizmatlari 112,7 % da, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 110,6 % da, xizmat turlarida qayd etildi.

**2020-yil yanvar-avgust oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha
ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %**



Nisbatan pastroq o'sish sur'atlari me'morchilik, muhandislik izlanishlari sohasidagi xizmatlar 67,9 %, yashash va ovqatlanish xizmatlari 86,2 %, ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar 87,7 % va kompyuterlar va ma'shiy tovarlarni ta'mirlash 91,2 % da kuzatildi.

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining uchdan bir qismiga yaqini savdo xizmatlarini tashkil etdi. 2020-yil yanvar-avgust oylarida uning ulushi 32,4 % ni tashkil etdi. Shu bilan birga, eng yuqori ulushlarni transport xizmatlari 21,5 %, moliyaviy xizmatlar 16,5 % va aloqa va axborotlashtirish xizmatlari 5,1 % egallaydi.

**2020-yil yanvar-avgust oylarida
iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da**

Eng kam ulush

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar
1,3 %



Me'morchilik sohasidagi xizmatlar
1,4 %



Yashash va oqatlanish xizmatlari
2,6 %



Ijara xizmatlari
2,6 %



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar
2,7 %



Ta'lim sohasidagi xizmatlar
3,0 %



Eng katta ulush

Savdo xizmatlari
32,4 %



Transport xizmatlari
21,5 %



Moliyaviy xizmatlar
16,5 %



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari
5,1 %



Boshqa xizmatlari
4,2 %



Kompyuterlar va ma'ishiy tovarlarni ta'mirlash
3,4 %




Shaxsiy xizmatlar
3,3 %



2020-yil yanvar-avgust oylarida savdo xizmatlari hajmi 2004,7 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmidagi ulushi 32,4 % ni tashkil etdi.

O'tgan yilning shu davriga nisbatan savdo xizmatlarining hajmi 149,1 mlrd. so'mga oshdi.

2020-yil yanvar-avgust oylarida savdo xizmatlari tarkibi, % da



Aholining daromadlari darajasining oshishi bilan iste'mol talabi va savdo aylanmasi o'smoqda.

2020-yil yanvar-avgust oylarida chakana savdo (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ning ulushi 86,4 % ni tashkil etadi.


Ulgurji savdo bo'yicha xizmatlarining (avtomobillar va mototsikllar savdosidan tashqari) ulushi 9,0 % ga yetdi.

Avtomobillar va mototsikllarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlarni qo'shgan holda avtomobillar va mototsikllar ulgurji va chakana savdosidan tashqari chakana savdo bo'yicha xizmatlar umumiy savdo xizmatlari hajmida 4,6 % ni egalladi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini rivojlantirish fuqarolik jamiyatida va bozor iqtisodiyotida yuz beradigan jarayonlarga ijobiyligi ta'sir ko'rsatish uchun zarur.

Hayotning ko'pgina sohalarida AKT joriy etilishi va rivojlanishi jamiyat, hukumat va biznes bilan bog'liq ko'plab tashqi va ichki jarayonlarni soddalashtirish va tezlashtiradigan muhim element hisoblanadi.

**2020-yil yanvar-avgust oylarida aloqa va axborotlashtirish
xizmatlarining tarkibi, % da**



- Boshqa aloqa va axborotlashtirish xizmatlari
- Telekommunikatsiya xizmatlari


2020-yil yanvar-avgust oylarida aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining hajmi 318,3 mlrd. so'mni tashkil etdi. Oldingi (yanvar-iyul oylari) davriga nisbatan o'sishi 43,2 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmida telekommunikatsiya xizmatlari (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet tarmog'i, yo'l doshli aloqa xizmatlari va boshqalar) katta qismni egallab, uning ulushi 96,7 % ni tashkil etdi.

Bugungi kunda o'quv jarayonini sifatli va samaradorligini oshirishning muhim omili sifatida maktablarni zamonaviy avtomatlashtirilgan laboratoriya uskunalarini, kompyuter texnikasini, darsliklari va yangi avlod darsliklari bilan ta'minlashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Ushbu davrda yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmi 163,8 mlrd. so'mga teng bo'ldi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning ulushi 2,6 % ga yetdi.

Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibi, % da



Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar hajmida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar 93,5 % ulush bilan yetakchilik qilmoqda. Yashash bo'yicha xizmatlar ulushi 6,5 % ga to'g'ri keladi.


Valyuta siyosatini erkinlashtirish, istiqbolli investitsiya loyihalarini kreditlash ko'lамини kengaytirish, shuningdek, moliyaviy tashkilotlar tomonidan innovatsion

xizmatlar ko'rsatish bo'yicha amalga oshirilgan islohotlar moliyaviy xizmatlar hajmini oshishiga ta'sir ko'rsatdi.

2020-yil yanvar-avgust oylarida moliyaviy xizmatlar hajmi 1020,5 mlrd. so'mga teng bo'lib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 130,5 % ni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlarning eng katta qismini pul-kredit sohasidagi vositachilik bo'yicha xizmatlar (91,7 %) tashkil etadi.

2020-yil yanvar-avgust oylarida moliyaviy xizmatlarning tarkibi, % da




**2020-yil yanvar-avgust oylarida hududlar bo'yicha
xizmatlar ishlab chiqarish hajmi**

	Hajmi, mlrd. so'm	O'tgan yilga nisbatan o'sish sur'ati, % da
Qashqadaryo viloyati	6192,0	99,8
Qarshi sh.	3001,8	100,2
Shahrisabz sh.	231,5	107,8
tumanlar:		
G'uzor	215,5	94,2
Dehqonobod	139,8	90,9
Qamashi	185,8	90,5
Qarshi	223,2	88,7
Koson	319,2	91,7
Kitob	289,2	92,7
Mirishkor	174,3	106,3
Muborak	278,1	101,0
Nishon	196,1	94,4
Kasbi	134	96,6
Chiroqchi	254,9	91,2
Shahrisabz	310,1	89,9
Yakkabog'	238,5	88,1

Hududlar o'rtaida eng katta hajm Qarshi shahri (3 001,8 mlrd. so'm), Koson (319,2 mlrd. so'm), Kitob (289,2 mlrd. so'm), Chiroqchi (254,9 mlrd. so'm) va Yakkabog' (228,5 mlrd. so'm) tumanlariga to'g'ri keladi.

Eng kam hajm Kasbi (134,0 mlrd. so'm), Mirishkor (174,0 mlrd. so'm) va Dehqonobod (139,8 mlrd. so'm) tumanlarida kuzatilmoqda.


**2020-yil yanvar-avgust oylarida hududlar bo'yicha
ko'rsatilgan bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, % da**



Yuqori bo'limgan o'sish sur'atlari Shahrисабз shahri (107,8 %), Mirishkor (106,3 %), Muborak (101,0 %) tumanlarida va Qarshi shahri (100,2 %)da kuzatildi.

Zamonaviy O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari milliy va mahalliy manfaatlarni hisobga olgan holda respublikaning har bir iqtisodiy salohiyati tuman va viloyatlarining barcha resurslaridan oqilona foydalanishiga bog'liqdir.

**2020-yil yanvar-avgust oylarida ko'rsatilgan bozor
xizmatlari umumi hajmida hududlarning ulushi, % da**



Hududlar o'rtasida xizmatlar umumi hajmida eng katta ulushni Qarshi shahri (48,5 %), Koson (5,1 %), Shahrisabz (5,0 %), Kitob (4,7 %) va Chiroqchi (4,1 %) tumanlari egallaydi.

Hududlar o'rtasida eng kam ulush Kasbi (2,2 %), Dehqonobod (2,3 %), Mirishkor (2,8 %) va Qamashi (3,0 %) tumanlariga to'g'ri keladi.